Bola va Zamon

Научно-популярный журнал детской и возрастной консультации

2 2023



Aforizmlar – aql sayqali, mushohada mahsuli

Формирование логических компонентов мышления детей в контексте математического развития

Virtual olam va psixologik himoya mexanizmlari o'rtasidagi aloqador munosabatlar

Bola va Zamon

2 / 2023

Tahrir kengashi a'zolari:

I.Yu. Abdurahmonov, B.A. Musayev,
A.Sh. Inoyatov, H.U. Umarova

Tahrir hay'ati a'zolari:

Yaxnyayeva Muxayo Shurniyazovna
bosh muharrir;
Alimova Vasila Sattarovna
tibbiyot fanlari nomzodi;
Abdurasulova Qumri
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Baxadir Islamovich
yuridik fanlar doktori;
Ismailov Isomiddin
yuridik fanlar doktori;
Isroilova Nodira Achilbayevna
falsafa fanlari nomzodi;
Kamilova Nodira Gayratovna
psixologiya fanlari doktori;
Muminova Lola Raximovna
pedagogika fanlari doktori;
Musurmanova Oynisa Musurmanovna
pedagogika fanlari doktori;
Safayev Nuriddin Salixovich
psixologiya fanlari doktori;
Sharipova Dilyara Djumaniyazovna
pedagogika fanlari doktori;
Sharipova Madina Karimovna
tibbiyot fanlari doktori;
Xrul'nova Gelena Vyacheslavovna
psixologiya fanlari nomzodi;
Qodirov Botir Raxmonqulovich
psixologiya fanlari doktori;
Kamilov Farxod Oblakulovich
sotsiologiya fanlari bo'yicha falsafa
doktori (PhD).

Jurnalning ushbu soni uchun mas'ul xodimlar:

Viktor Sattarov (mas'ul kotib);
Yelena Kalinina,
Nargiza Qahharova (musahhihlar);
Sherzod Alimov (fotograf).

Jurnal O'zR VM huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi Prezidiumining 2006 yil 26 oktyabridagi 128/4-sonli qarori bilan **yuridik** fanlar bo'yicha, 2007 yil 29 martidagi 133/4-sonli qarori bilan **pedagogika** va **psixologiya** fanlari bo'yicha ilmiy daraja talabgorlari chop etishi lozim bo'lgan jurnallar ro'yxatiga kiritilgan.
Ta'sischilar: Respublika bolalar ijtimoiy moslashuvi markazi, "Sen Yolg'iz Emassan" Respublika bolalar jamoatchilik jamg'armasi.
Nashr O'zbekiston matbuot va axborot agentligida ro'yxatdan o'tgan. Ro'yxatdan o'tganlik to'g'risidagi guvohnoma raqami 0168; 2007-yil 11-yanvar.
ISSN 2181-5496
Tahririyat manzili: 100100, O'zbekiston Respublikasi, Toshkent shahri, Abdulla Qahhor ko'chasi, 34-uy.
Telefonlar:
+998-71-281-59-30; 281-50-18; 281-49-54 (faks)
El. pochta: bola-zamon@umail.uz
Veb-sahifa: www.rcsad.uz
Ijtimoiy tarmoqdagi sahifa:
www.facebook.com/bolavazamon
Obuna indeksi: 1127. Jurnal 1 yilda 4 marta chiqadi.
Jurnal bosishga ruxsat etildi: 10.03.2023.
Chiqarilgan sanasi: 24.04.2023.
Buyurtma: №1157182 27.03.2023.
Adadi: 100 nusxa. Bahosi: "Kelishilgan narxda".
Jurnal "TERRA PRINT KLASTER" MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: O'zbekiston Respublikasi, Toshkent sh., Uchtepa tumani, Katta Xirmon tepa, Shirin 23 kv., 47A.

Muallifning fikri har doim ham tahririyat fikriga to'g'ri kelavermaydi. Tahririyat maqolalarning uslubiy xatolarini to'g'rilash va qisqartirish huquqini o'zida saqlab qoladi. Tahririyatga yuborilgan maqolalar egasiga qaytarilmaydi va taqriz yozilmaydi.
Мнение редакции не всегда совпадает с мнением автора. Редакция оставляет за собой право на стилистическую правку и сокращение статей. Присланные в редакцию рукописи не возвращаются и не рецензируются.

PSIXOLOGIYA VA TIBBIYOT / ПСИХОЛОГИЯ И МЕДИЦИНА

- Tayanch-harakat apparatida nuqsoni bo'lgan bolalarda iroda rivojlanishining o'ziga xosligi 2
- O'spirinlarda huquqiy savodxonlikni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari 5
- Gender tafovutlarning ijtimoiy normalar doirasida shakllanishi 8
- Aleksitimiyaning ota-ona va farzandlar munosabatlariga salbiy ta'siri 10
- Virtual olam va psixologik himoya mexanizmlari o'rtasidagi aloqador munosabatlar 12

PEDAGOGIKA VA TA'LIM / ПЕДАГОГИКА И ОБРАЗОВАНИЕ

- Использование мнемотаблиц для развития связной монологической речи у детей дошкольного возраста 15
- Jismoniy tarbiya, sport va turizm – sog'lom turmush tarzi kafolati 18
- Aforizmlar – aql sayqali, mushohada mahsuli 20
- Влияние открытых уроков на вовлеченность учащихся 22
- Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida matematik kompetentlilikni rivojlantirish usullari 24
- Формирование логических компонентов мышления детей в контексте математического развития 28
- Matematikani o'qitish jarayonida integrativ yondashish 31
- Ta'lim tizimida davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini qo'llashning afzalliklari 35

MAXSUS PEDAGOGIKA / СПЕЦИАЛЬНАЯ ПЕДАГОГИКА

- Практическая деятельность учителя по обучению английскому языку детей с нарушениями зрения 37
- Bolalar nutqining prosodik tomonini rivojlanishi – nutqning tushunarli va ifodali bo'lishi kafolati sifatida 40
- Autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning nutqini rivojlantirishda "Muloqot" dasturining ahamiyati 42
- Ilk yoshdagi koxlear implantatsiyaning afzalliklari 47
- Значение альтернативной и дополнительной коммуникации для людей с особыми нуждами 50
- Autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalarning ota-onalarida stress holatlarini namoyon bo'lishi 52
- Структурированное обучение: план дня для детей с аутизмом 54
- Ko'rish organida muammosi bo'lgan yoki zaif ko'radigan bolalarning ta'lim olish xususiyatlari 57
- Nogironligi bo'lgan talabalarda kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishda axborot-kompyuter texnologiyalarining o'rni 60
- Создание инклюзивной образовательной среды для детей с особыми образовательными потребностями 63
- Duduqlanish muammosi: kelib chiqish sabablari, omillari yuzasidan olimlarning qarashlari 66
- Mutaxassislarning autistik spektrida buzilishi bo'lgan bolalar va ularning ota-onalari bilan hamkorligi (RBIMM Axborot-konsalting xizmati misolida) 68
- Развитие связной речи у детей дошкольного возраста на логоритмических занятиях 70

Ilk yoshdagi koxlear implantatsiyaning afzalliklari

Xurshidaxon RAXIMOVA

Qo'qon davlat pedagogika instituti "Maxsus pedagogika" kafedrasi dotsenti v.b., PhD

Tayanch so'zlar: koxlear, reabilitatsiya, abilitatsiya, nutq protsessori, tovush, talaffuz, artikulyasiya, tovush, talaffuz, operatsiya, logoped, surdopedagog.

Annotaciya / Аннотация / Abstract

UZ. Ushbu maqolada koxlear implantatsiyaning qanchalik erta amalga oshirishni afzalliklari va bu jarayonda mutaxassislarning vazifalari yoritilgan. Koxlear implantatsiyadan so'ng bolalar bilan reabilitatsiya ishining bosqichlari hamda talaffuzini shakllantirish ishlarining yo'nalishlari yoritilgan.

RU. В данной статье освещаются преимущества ранней кохлеарной имплантации и роль специалистов в этом процессе. Освещены этапы реабилитационной работы с детьми после кохлеарной имплантации и направления работы по формированию произношения.

EN. This article highlights the benefits of early cochlear implantation and the role of professionals in this process. The stages of rehabilitation work with children after cochlear implantation and directions of pronunciation formation work are highlighted.

Eshitishni ilk davrlardanoq protezlash, buzilgan eshitish funksiyalarini o'z vaqtida korreksiya qilish, kar va zaif eshituvchi bolalar eshitish idrokining faol shakllanishiga zamin yaratadi. Natijada bolalarda nutqiy faollik va uning asosida intellektual faoliyat rivojlanadi. Amaliyotda koxlear implantatsiyadan foydalangan katta yoshli shaxslarni ta'kidlashlaricha, ushbu moslama yordamida tovush va nutq nisbatan tabiiy jaranglaydi, turli tovush manbalarini topish imkonini kengaytiradi hamda eshitishga o'ta diqqatni sarflash paytida insonning toliqishini kamaytiradi. Koxlear implantatsiya bugungi kunda ham tug'ma, ham olingan sensonevral kar insonlarni eshituvchilar olamiga olib kirishning eng samarali usuli hisoblanadi. Eshitishida nuqsoni bo'lgan insonlarning ichki qulog'ining tovush qabul qiladigan qismi, ya'ni chig'anoqdagi tukli hujayralar o'rnini bosuvchi elektrod joylanadi. Nutq protsessori tashqi olamdagi tovushlarni qabul qilib, ular, o'z navbatida, elektr impulslariga aylanadi va implantatsiyalangan elektrodlar yordamida ovozli axborot bosh miyaning eshituv markaziga uzatiladi.

Bugungi kunda bola hayotining dastlabki uch yili miyaning eshitish va nutq markazlarining rivojlanishi uchun eng muhim davr bo'lganligi sababli bolaning ilk yosh davrlarida koxlear implantatsiya amalga oshirilmoqda. Koxlear implantatsiya qilingan bola – bu go'yoki yangi tug'ilgan chaqaloq, ya'ni barcha narsani eshitish orqali qabul qilishni endi anglashni boshlagan go'dak hisoblanadi. Chunki umuman eshitmagan bola ham hayotga go'dak singari moslashishni yangidan boshlaydi. Shu bois, bolaning ilk yosh davridan koxlear implantatsiya amalga oshirilsa, bola tengdoshlari bilan bir vaqtda dunyoni eshitishga va taqlid asosida talaffuz qilishga o'rganadi. Ilk yoshdagi koxlear implantatsiyaning maqsadi – suhbatdoshining nutqini tushunish, mustaqil gapirish va atrofdagi odamlar bilan muloqot qilish uchun nutqdan foydalanishni o'rganish hisoblanadi.

Koxlear implantatsiyadan so'ng kichik yoshdagi bolalarni reabilitatsiya qilishning eng muhim yo'nalishlaridan biri nutqni rivojlantirish bo'yicha nutq terapiyasi hisoblanadi. Mashg'ulotlar boshlanishidan oldin surdopedagog turli darajadagi nutqiy va nonutqiy ovozlar yordamida bolalarning individual eshitish qobiliyatini aniqlaydi va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.

Mashg'ulotlarni tashkil etishdagi maxsus shartlar:

- xonada tashqi shovqin va aks-sado ta'siri istisno qilinadi;
- surdopedagog bolaning implantatsiyalangan qulog'i tomonida o'tirishi zarur;
- bir vaqtning o'zida bir nechta odamning gapirishiga yo'l qo'yilmasligi darkor;
- surdopedagog va logoped ovozini biroz sekinlashtirib, pauza qilish bilan tushunarli tarzda so'zlarni dona-dona qilib, gapirishi lozim.

I.V. Koroleva [2] koxlear implantatsiyadan so'ng reabilitatsiyaning to'rt bosqichini ajratgan bo'lib, har bir bosqichda surdopedagog va logoped turli vazifalarni bajaradi *(1-jadval)*.

Ilk yoshdagi koxlear implantli bolalar bilan talaffuzini shakllantirishning birinchi bosqichi operatsiyadan avval boshlanadi va operatsiyadan keyin bu reabilitatsiya jarayoni davom ettiriladi.

Dastlabki talaffuzini shakllantirish ishlari bir qator yo'nalishlarni o'z ichiga oladi:

1 Nutqiy nafasni shakllantirish (yo'nalishli havo oqimi shakllanishi, nafasning kuchi va davomiyligini oshirish). Buning uchun sharni puflash, shamni puflash, paxtani puflash v.x.

1-jadval. Koxlear implantatsiyadan so'ng bolalar bilan reabilitatsiya ishining bosqichlari

Reabilitatsiya bosqichi	Koxlear implantatsiyadan keyingi vaqt oralig'i	Reabilitatsiya ishining vazifalari	Surdopedagogning vazifalari
1. Boshlang'ich	3-12 hafta	**1.** Koxlear implant protsessori sozlamalarini amalga oshirish, bolaga nutqiy va nonutqiy tovushlarni kamida 4 metrdan 6 metrgacha masofada qabul qilish imkonini beradi. **2.** Bolaning nutqiy va nonutqiy tovushlarga va atrof-muhit tovushiga, insonning ovozini tinglashga bo'lgan qiziqishini uyg'otish.	**1.** Bolaning ovozlar dunyosiga kirib kelishida eshitish idrokini rivojlantirish. Kelajakdagi nutqning fiziologik asoslarini shakllantirish. **2.** Bolaning o'z ovoziga qiziqishi, muloqot uchun o'z nutqidan foydalanishini rag'batlantirish. **3.** Ota-onalarga talaffuz malakalarini rivojlantirish, nutqni faollashtirish bo'yicha maslahat berish.
2. Asosiy	5-18 oy	**1.** Koxlear implant nutq prosessorini sozlashning optimal parametrlariga erishish. **2.** Bolada barcha bilish jarayonlarini shakllantirish tovushlarni tahlil qilish. **3.** Bolaning nutqiy muloqot qilishi uchun motivatsiyasi.	**1.** Fonemik eshitishni rivojlantirish, so'zlarni eshitish orqali o'rganish va xotirasini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi. **2.** Ovozni rivojlantirish, artikulyasion apparatlarning harakatchanligini oshirish, ovozli muloqotni rivojlantirish bo'yicha ishlar. **3.** Eshitish va eshitish idrokini rivojlantirish. **4.** Koxlear implant bilan bolada o'z og'zaki nutqining tez sur'atda rivojlanishini rag'batlantirish.
3. Til	5 yilgacha davr	**1.** Tilning grammatik tizimini rivojlantirish (mahalliy tizim til-so'z, grammatika). **2.** Muloqot va bilim vositasi sifatida nutqni rivojlantirish. **3.** Eshitish qobiliyatini takomillashtirish va talaffuz qobiliyatlarini rivojlantirish.	**1.** Eshitish idroki va xotirani rivojlantirish. **2.** Aktiv va passiv lug'atni yanada boyitish. **3.** Grammatik tizimni rivojlantirish. **4.** Eshitish-vizual va eshitish asosida og'zaki nutqni tushunishni rivojlantirish. **5.** Faol (ifodali) lug'atning to'planishi. **6.** Dialogik nutqni rivojlantirish. **7.** Og'zaki va yozma nutqni rivojlantirish. **8.** Ovozni nazorat qilish, ovozli aloqa, prosodik komponentlarni takomillashtirish. **9.** Berilgan matnni o'qish va tushunish qobiliyatlarini rivojlantirish.
4. Bog'langan nutqni rivojlantirish bosqichi	Rivojlanishning keyingi davri	Atrof-muhit to'g'risida umumiy taassurotlarni kengaytirish.	Lug'at zahirasini kengaytirish. Grammatik tizimni yanada rivojlantirish.

2 **Artikulyasion massaj.** Artikulyasiya apparatlarda harakatchanlik past bo'lgan va mushak tonusi zaif bolalar uchun amalga oshiriladi.

3 **Artikulyasion gimnastika.** Artikulyasion a'zolarning harakatchanligini yanada oshirishga yordam beradi. Bu oynaning oldida ham bajarilib, "oyna oldida harakatlar qilish", turli xil ovozli mashqlar, qo'shiq aytish, bolaning kattalarga taqlid qilishiga yordam beradi.

Koxlear implantatsiyadan keyingi reabilitatsiya ishlari uchun bu yo'nalishlar kelajakdagi bolaning talaffuz kamchiliklarini bartaraf etishga va sog'lom bolalar kabi suhbatdoshni eshitib, javob qaytarishi uchun zamin yaratadi.

Ko'p hollarda, koxlear implantatsiyadan avval kichik yoshdagi bolalar o'z nutqlariga ega bo'lishmaydi. Ular faqat ovozli vokalizatsiyaga ega bo'lishi mumkin. Bolalar, birinchi navbatda, beixtiyor va keyin o'zboshimchalik bilan ovozli reaksiyalarni chaqirish uchun ishlatilishi mumkin. Bu, albatta, ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Koxlear implant ulanib bo'lgach, eshitish idrokini rivojlantirish, passiv so'z birikmalarini to'ldirish va to'satdan nutqni keltirib chiqarish bilan shug'ullaniladi. Dastlabki bosqich asosiy bosqich hisoblanadi.

Koxlear implant bilan bolaning eshitish idrokini rivojlantirish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi: ovozni aniqlash (tovush/tovush yo'q), tovush manbasini lokalizatsiya qilish, nutq va noaniq tovushlarni ajratish, tovush xususiyatlarini baholash (baland-past ovozda, sekin-qattiq ohangda), noaniq atrof-muhit tovushlarini farqlash va aniqlash (musiqa asboblari, hay-

“1790 yili mashhur fizik Alessandro Volt eshitish tizimiga elektr kuchaytirgich orqali ta’sir ko‘rsatib, tovush hissini chorlash mumkinligini aniqladi. U quloqqa metall o‘tkazgich va 50-voltli elektr zanjirni uladi. Bunda u qaynayotgan suv tovushini his qildi.

Sekin-asta olimlar elektr quvvati yordamida tovushni kuchaytirish muammosi bilan shug‘ullanishni boshladilar. Elektrodlar bilan eshitish nervini bevosita rag‘batlantirish 1950 yilda fransuz-aljir olimlari Adre Djurno va Sharl Ire tomonidan o‘tkazildi. Bu operatsiya natijasida ham shovqin bor edi.

1961 yili amerikalik shifokor Uilyam Xaus Djurno ishlari asosida eshitish apparatini bunyod etdi va 3 ta bemorda sinab ko‘rdi. 1969 yili Xaus Djek Urban bilan hamkorlikda patsient taqib yurishi mumkin bo‘lgan eshitish apparatini yaratishdi. Avstraliyaning Melburn universiteti olimi Grem Klark 1970 yili sun’iy quloq apparatini yaratishga kirishdi va ilk koxlear implant patsientga 1978 yil 1 avgustda qo‘yildi.

1984 yili dekabrida amerika assotsiatsiyasi – Food and Drug Administration (FDA) avstraliyaliiklarning koxlear implantlarini AQSH da qo‘llashni ma’qulladi.

Koxlear implantdan foydalansh sobiq Ittifoqda 1991 yildan boshlandi [6]”.

vonlarning ovozi), turli xil nutq signallarini aniqlash (fonemalar, so‘zlar, iboralar).

Logoped va surdopedagoglar fonemik eshitishni rivojlantirish uchun ish olib boradi (bolani hayvonlarning tovushlarini, atrofdagi dunyoni, yaqin odamlarning ovozlarini o‘rganishga o‘rgatadi). Shu bilan birga, so‘z birikmalarini tuzish bo‘yicha ishlar olib borilmoqda, bu esa ota-onalarga tegishli. Koxlear implant yoqilish vaqtida bolalarda o‘z nutqi ko‘pincha butunlay yo‘q yoki alohida g‘ovur-g‘uvur so‘zlar bilan ifodalanadi.

Koxlear implantatsiyadan so‘ng og‘zaki nutqni rivojlantirish, boshqalarning nutqini tushunish, grammatik g‘oyalar va talaffuz qobiliyatlarini shakllantirish kerak bo‘ladi. Logoped ishining vazifasi – bu talaffuz kamchiligini bartaraf etish va, birinchi navbatda, talaffuz qilish qobiliyatini, so‘ngra so‘z birikmalari ketma-ketligini rivojlantirish uchun nutq tovushlarini chaqirishdan iboratdir.

Koxlear implantga ega bo‘lgan bolada ovozning rivojlanishi bir qator xususiyatlarga ega. Ko‘pincha bu nutq tovushlarining mexanik ifodasi emas, balki ularni chaqiruvchi tovushlar, so‘z birikmalari yoki qisqa so‘zlarni talaffuz qilish bilan ifodalanadi. Ushbu usuldan foydalanish ovozli reaksiyalarni, tovushlarni, artikulyasiya, nafas olish va ovozli apparatlarni tezroq bajarishga yordam beradi.

Mutahassis ishining dastlabki bosqichlarida implant qilingan bolaning nutqini rivojlantirish bo‘yicha mashg‘ulotlar uni to‘satdan nutq faoliyatining namoyon bo‘lishiga olib keladi. Buning uchun bolalarni oddiy so‘zlardan foydalanishga o‘rgatish muhimdir. Bu jarayonda o‘qituvchi, avvalo, kundalik hayotda eng ko‘p ishlatiladigan oddiy va eng ko‘p ishlatiladigan so‘zlarni (ber, ol, ich, aya, dada, buvi va h.k.) bir necha marta aytadi, ularni tegishli harakatlar va narsalar bilan bog‘laydi. Asta-sekin bola kattalarga taqlid qiladi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash joizki, koxlear implantli bolalar bilan ishlaganda so‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishga ham e’tibor qaratish lozim. Buning uchun so‘zlar, ayniqsa, gaplarning ohangiga e’tibor berib, talaffuz qilish zarur. Mazkur yondashuv orqali bolalarda so‘zlarni bo‘g‘inlarga va gaplarni qismlarga ajratish ko‘nikma va malakalari shakllanadi. So‘zlarni bo‘g‘inlarga ajratishning an’anaviy usuli sifatida qarsak chalishdan foydalanishni tavsiya qilamiz. Bu usul koxlear implantli bolaga oson va so‘z tarkibini nazorat qilishga qulaydir.

“Koxlear implantatsiyadan so‘ng kichik yoshdagi bolalarni reabilitatsiya qilishning eng muhim yo‘nalishlaridan biri nutqni rivojlantirish bo‘yicha nutq terapiyasi hisoblanadi. Mashg‘ulotlar boshlanishidan oldin surdopedagog turli darajadagi nutqiy va nonutqiy ovozlar yordamida bolalarning individual eshitish qobiliyatini aniqlaydi va eshitish qobiliyatini rivojlantiradi.”

Adabiyotlar:

1. Королева И.В. Слухоречевая реабилитация глухих детей с кохлеарными имплантами. – СПб., 2005.

2. Королева И.В. Прогноз эффективности слухоречевой реабилитации после кохлеарной имплантации у детей младшего возраста. // Ж.: Дефектология, 2002.

3. Fayzieva U., Nazarova D., F. Qodirova. Surdopedagogika. // O‘quv qo‘llanma. – T.: Sano standart, 2012.

4. Raximova X.S. Koxlear implantli bolalar bilan logopedik ish. O‘quv qo‘llanma. – Farg‘ona, 2021.

5. Raximova X., Isoqjonova D. O‘zbekistonda koxlear implantatsiya rivojlanishi omillari. // J.: Bola va zamon, 2019. 4-son. 35-36 b.

6. https://msluh.ru/kokhlearnaya_implantatsiya/Istoria-KI/. – Murojaat sanasi: 20.04.2023.